


104. Bir necha marta kamaytirish

Yondosh mavzu:
ajdod va avlodlar.

... marta kichik,
... marta orttirish.



2 ta cho'pni
shunday
qo'shinki,
natijada 7 ta
kvadrat hosil
bo'lsin.



1. Bolalar onasi uchun 2 ta, buvisi uchun esa 2 marta ko'p gul sotib olishdi. Bolalar buvisi uchun nechta gul sotib olishdi?

2. a) 3 ta doira chizing. 2 marta ko'p kvadrat chizing. Doiralardan kvadratlardan necha marta kam?
b) 4 ta kvadrat chizing. Kvadratlardan 2 marta ko'p uchburchak chizing. Kvadratlar uchburchaklardan necha marta kam?

Sonni bir necha marta kamaytirish

Sonni n marta kamaytirish uchun
bu sonni n ga bo'lish kerak.

Yulduzchalar romblardan 2 marta ko'p.
Romblar yulduzchalardan 2 marta kam




3. a) 4 sonini 5 marta, 7 marta, 10 marta orttiring.
b) 40 sonini 8 marta, 5 marta, 10 marta kamaytiring.
Teskari amalni toping.

4. a) Daftaringizga uzunligi 6 cm bo'lgan AB kesma chizing.
b) CD kesmaning uzunligi AB kesmaning uzunligidan 2 marta kichik. CD kesmani yasang.
d) MN kesmaning uzunligi CD kesmaning uzunligidan 2 marta katta. MN kesmani chizing.
e) AB va MN kesmalar uzunliklarini taqqoslang.





5. Sxemadan foydalanib, masalani yeching.

Bobo uyqudan oldin nabirasi Said bilan ertak o'qidi. Bir oyda bobo nabirasidan 4 marta ko'p ertak o'qidi. Said 6 ta ertak o'qidi. Bobo nechta ertak o'qigan?



6. Mos sxemani tanlang va masalani yeching.

Ota o'g'li Aziz bilan tomorqada jo'yaklarni chopdi. Ota 10 ta jo'yakni chopdi. Bu Aziz chopganidan 5 marta ko'p. Aziz nechta jo'yakni chopgan?



7. Amallarni bajaring.

- a) 7, 9, 11 sonlarini 2 marta orttiring.
- b) 30, 27, 21 sonlarini 3 marta kamaytiring.
- d) 5 sonini 6 marta; 8 marta; 9 marta orttiring.
- e) 30 sonini 3 marta; 5 marta; 6 marta kamaytiring.
- f) 456 sonini 31 taga; 128 taga; 229 taga orttiring.
- g) 876 sonini 49 taga; 190 taga; 207 taga kamaytiring.



8. Baliq ovida Halim 6 ta baliq tutdi. Otasi Halimdan 2 marta ko'p baliq tutdi. Bobosi otasidan 3 marta kam baliq tutdi. Ularning har biri nechta baliq tutgan?



Yondosh mavzu:
men va sotsium.

Sotsium – bu biz yashayotgan jamiyat. Bu bizning hovlimiz, bizning maktabimiz, bizning mamlakatimiz. O'zbekistonda turli millat, elat va an'analarga ega xalqlar yashaydi. Ularnig barchasi tinch va totuv yashaydilar.



1. Xalqaro do'stlik kuniga bag'ishlangan bayramga birinchi sinflardan 30 o'quvchi va ikkinchi sinflardan 2 marta ko'p o'quvchi qatnashdi. Hammasi bo'lib qancha o'quvchi qatnashdi?



2. Bir xil javobli misollardan sana tuzing. Bu sana qaysi kunga to'g'ri keladi?

1 $(81 - 53) : 4$

9 $(90 - 50) : 5$

20 $(17 + 3) : 4$

30 $(17 + 23) : 4$

Iyun $(30 : 3) - (16 : 8)$

Iyun $(3 \cdot 3) - (18 : 9)$

Iyul $5 + (25 : 5)$

Dekabr $3 \cdot 7 - 16$

8

Xalqaro do'stlar kuni

7

Xalqaro bolalar kuni

10

Xalqaro do'stlik kuni

5

Xalqaro odamlar birdamligi kuni



3. Quyida keltirilgan mavzulardan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni toping va ulardan do'stlik haqidagi maqolni tuzing.

1) 85-mavzu

2) 86-mavzu


3) 88-mavzu

4) 93-mavzu


5) 94-mavzu



4. Bolalar "Ko'paytirish jadvali" stol o'yinini o'ynashmoqda. Stol ustiga bir nechta kartochka qo'yilgan. Ishtirokchilar navbat bilan kartochka ustiga o'z kartochkalarini qo'yadilar. O'yin shartiga ko'ra ishtirokchi, agar uning kartochkasidagi sonlar ko'paytmasi stoldagi ustki kartochkadagi sonlar ko'paytmasidan katta bo'lsa, o'z kartochkasini uning ustiga qo'yadi. Bu kartochkalar stol ustiga qanday tartibda joylashtirilgan?



Agar mos kartochka bo'lmasa, ishtirokchi stoldagi hamma kartochkalarni o'ziga oladi. Agar Azizning qo'lida ushbu uchta kartochka bo'lsa, u qanday ish tutadi?



5. O'quvchilar do'stlari va tanishlari bilan so'rovnoma o'tkazib, diagramma tuzdilar. Diagramma odamlar boshqa davlatlar haqidagi ma'lumotlarni qayerdan olayotganliklarini ko'rsatadi. Diagrammaga qarab odamlar qaysi manbalardan ko'proq, qaysilaridan kamroq foydalanishlarini aniqlang.



6. Fotosuratchi ikkita o'g'il bola va ikkita qiz boladan iborat guruhning chiroyli fotosuratini ishlamoqchi bo'ldi. Buning uchun u bolalarni turli tartibda joylashtirib, suratga oldi. Agar ikki qiz yonma-yon turishni xohlasa, u necha ko'rinishda suratga olishi mumkin?